



## **Internetda (digital) reklama qilish uchun reklama agentligini tanlash bo'yicha tanlov hujjati**

**Andijon – 2024**

## Mundarija

1. Tanlov haqida umumiy ma'lumotlar.....	2
2. Tanlov ishtirokchisiga qo'yilgan talablar.....	2
3. Texnik qism.....	3
4. Narx qismi.....	5
5. Baholash mezonlari (Jarayon tavsifi).....	5

## **1. Tanlov haqida umumiy ma'lumotlar**

1.1	Tashkilotchi	“Hamkorbank” ATB
1.2	Buyurtmachi	“Hamkorbank” ATB
1.2	E'lon turi	Eng yaxshi taklifni tanlash
1.3	Xarid predmeti	Internetda reklama kampaniyalarini boshqarish bo'yicha xizmatlar
1.4	Tanlov tili	O'zbek, Rus
1.5	Xarid narxi	2 550 000 000 so'm
1.6	Xarid jarayonining turi	Yopiq elektron shaklda
1.7	Ariza qabul qilish muddati	5 bank ish kuni
1.9	Arizalarni ko'rib chiqish vaqtি	3 bank ish kuni

Takliflar so'rovi savdo, ommaviy konkurs va ommaviy oferta emas va Buyurtmachining Xarid g'olib bilan shartnomalar tuzish majburiyatini yuklamaydi. Buyurtmachi istalgan vaqtida Tender g'olib bilan shartnoma tuzishni rad etishga haqli (tushuntirishlar va yetkazilgan zararni qoplashsiz).

## **2. Tanlov ishtirokchisiga qo'yilgan talablar**

2.1 Tanlovda ishtirok etish uchun yuridik shaxslar (keyingi o'rinnarda - Ishtirokchilar) quyidagi shartlarda taklif etiladi:

- Tanlovda O'zbekiston Respublikasi hududida bunday xizmatlarni amalga oshirishda ishtirok etish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan, ularda ishtirok etish shartlarini bajargan va tender asosida xarid qilingan xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha tegishli tajribaga ega bo'lgan mahalliy va xorijiy kompaniyalar (ijrochilar) ishtirok etishi mumkin;
- qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik jarayonida bo'lmaslik;
- sudning, ma'muriy organning qarori bilan mol-mulki xatlangan va (yoki) iqtisodiy faoliyati to'xtatilgan yuridik shaxs bo'lmaslik;
- insofsiz yetkazib beruvchilar reyestrida turmaslik;
- moddiy bazaning mavjudligi (ofis, instrumentlar);
- xizmatlar ko'rsatish uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetentlikka, moliyaviy va mehnat (kadrlar) resurslariga, instrumentlarga va boshqa moddiy imkoniyatlarga, ishonchlilikka, tajriba va obro'ga ega bo'lishi.

### 3. Texnik qism

Nº	Ko'rsatilishi lozim bo'lgan xizmatlar	Xizmat tavsifi
1	Google Ads / Yandex.Direct (kontekstli reklama) / Programmatic Banners (DV360) Blogerlar Ijtimoiy tarmoqlardagi kanal va guruhlar	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Kontekstli reklama.</li> <li>2. Reklamani qidirish, Yandex yoki Google qidiruv natijalarida reklama (kalit so'zlar, so'rovlar uchun e'lon qilinadi)</li> <li>3. YAN (Yandex Advertising Network):           <ul style="list-style-type: none"> <li>- Tematik targeting;</li> <li>- Behavior targeting;</li> <li>- Retargeting</li> </ul> </li> <li>4. GDN (Google Display Network):           <ul style="list-style-type: none"> <li>- Joylashuv joylarini targetga olish;</li> <li>- Auditoriya targetingi.</li> </ul> </li> <li>5. Display &amp; Video 360.</li> <li>6. Lidlar olish</li> </ol>
2	Ijtimoiy tarmoqlarda reklama (Facebook, Instagram, Telegram)	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Target           <ul style="list-style-type: none"> <li>• Brend xabardorligini oshirish;</li> <li>• Sayt va Landing sahifalariga trafik oqimini oshirish;</li> <li>• Lidlar olish.</li> </ul> </li> </ol>

#### 3.1 Atamali terminlarga tavsiflar

**«Media-reja»** – bu mijoz bilan kelishilgan mavzular bo'yicha kalit so'zlarni o'z ichiga olgan reklama kampaniyasi rejasi, shuningdek, u reklama bo'yicha o'tishlar sonining prognoz qilingan taxminiy soni, bitta o'tish narxi, reklama qilingan veb-sayt sahifalariga giperhavolalar orqali o'tishlar sonining reklama materiallari ko'rsatilish soniga nisbati (keyingi o'rinnlarda CTR), hamda sifatli lidlarni sonini o'z ichiga oladi.

**«Joylashtirilgan reklamani boshqarish»** – reklama kampaniyalarini tayyorlash, reklama kampaniyasini joylashtirish samaradorligini oshirish, statistikani nazorat qilish, reklama kampaniyalari natijalariga ko'ra optimallashtirish va hisobotlar berib borish. Reklama kampaniyasini tayyorlashda reklama matnlarini yozish, reklama matnlarini Buyurtmachi orqali tasdiqlash, Internet tizimida reklamalarni joylashtirishdan iborat.

**«Sifatli lid»** – bu buyurtmachining o'z veb-saytida joylashtirgan reklamalariga yuridik shaxslar tomonidan qoldirilgan maqsadli murojaatlar, lid sifatli yoki sifatsiz ekanligini Buyurtmachining o'zi begilaydi.

**«Reklama kampaniyasi»** – Internetda reklamani joylashtirish.

**«Reklama byudjeti»** – Buyurtmachi tomonidan belgilangan muddatda reklama kampaniyasi uchun to’lanadigan to’lovning umumiy summasi.

**«Sifatli lidni jalg qilish narxi»** – hisobot davridagi reklama byudjeti hajmini hisobot davridagi reklama kampaniyalari orqali jalg qilingan sifatli mijozlarning umumiy soniga bo’lish koefitsienti.

**«KPI»** – sifatli lidlarni jalg qilish hajmi bo'yicha bajarilish ulushi. Bu media-rejaga muvofiq haqiqiy jalg qilingan sifatli lidlarning prognoz qilingan hajmga nisbati bilan aniqlanadi.

*\*Mediaplan yoki boshqa tegishli hujjatlarni tuzishda yuqoridagi atamalardan foydalanish tavsiya etiladi.*

### 3.2 Xizmat tavsifi

Buyurtmachining veb-sayt URL-manzili: [www.hamkorbank.uz](http://www.hamkorbank.uz)

Shartnomada doirasida Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan media-rejaga muvofiq Internetda reklama kampaniyalarini joylashtirish bo'yicha boshqaruv xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha to'liq hajmdagi ishlarmi amalga oshirish zarur.

Media-rejaga asosan sifatli lidlarni jalg qilish hajmi va ularning narxi bo'yicha prognoz shakllantiriladi.

Shartnomaga asosan KPI tuziladi, unga ko'ra Bajaruvchining hisobot davridagi xizmat haqi miqdori belgilanadi.

### 3.3 Shartnomada uning muddatlari

**Xizmat ko'rsatilishi uchun shartnomada imzolash muddati:**

Tanlov natijalari aniqlangandan so'ng.

**Xizmat ko'rsatishning oxirgi sanasi:**

Shartnomada bo'yicha byudjet to'liq sarflanmaguncha.

#### 4. Narx qismi

1	Tanlovning boshlang'ich summasi	2 550 000 000 so'm
2	To'lov manbai	Bankning o'z mablag'lari
3	To'lov shartlari	Shartnomaga ko'ra, oldindan rejalashtirilgan media-rejaga muvofiq, har bir hisobot oyi uchun Ijrochi tomonidan bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnama va hisobvaraq-faktura taqdim etilgandan so'ng 10 (o'n) bank ish kuni mobaynida 100% post-to'lov to'lanadi.
4	To'lov valyutasi	O'zbekiston so'mi
5	Xizmatlarni ko'rsatish muddati	Shartnomaga bo'yicha byudjet to'liq sarflanmaguncha.
6	Yetkazib berish manzili	O'zbekiston Respublikasi, Andijon shahri, Bobur shoh ko'chasi, 85-uy
7	Ishtirokchilar taklifi amal qilish muddati	1 oy

#### 5. Baholash mezonlari (Jarayon tavsifi)

**Taklifni baholash usuli:** Eng past narxli va sifatli taklifni tanlash.

Baholash uchun asosiy talablar:

##### Moliyaviy mezonlar:

1. Narx taklifi (Agentlik komissiyasi).

*Ishtirokchilar quyidagi takliflarni o'z ichiga olgan faylni to'ldirishlari va yuborishlari kerak (1-ilova):*



ILOVA №1\_Agentlik  
komissiyasi.xlsx

##### Malakaviy mezonlar:

1. Tavsiya xatlari;
2. Sertifikatlangan xodimlar soni;
3. Reklama kabinetiga kirish va texnik yordam;
4. Oxirgi 8 oydagи bank aylanmasi (01.01.24-01.09.24).

*Ishtirokchilar 2-ilovada keltirilgan hujjatlarni taqdim etishlari shart:*



ILOVA

Nº2\_Malakaviy mezo